

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJDODIY PARVOZ

2023-yil oktyabr № 10 (125) ✓dsmi.uz ✓nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



Til bayrami muborak,
aziz vatandoshlar !



Eldor SHERMANOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

1989-yil 21-oktyabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi va O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilishi ta'minlanishi belgilab qo'yilgan.

Donolar so'zlaydi...

Til – shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa – tilning ofatidir.

Alisher NAVOIY

Yagona va eng mudhish xato avvalgi xatolarni tuzatmaslikdir.

KONFUTSIY

Agar sendan ezbilik nima deb so'rasalar: amalda foydalanilgan donishmandlikdir, deb javob ber.

PIFAGOR

Yoshligingda keksalik uchun donolikni to'pla. Chunki undan ishonchliroq bisot yo'q.

Priyentalik BIANT

Bugungi sonda

Sun'iy intellektning bolaligi

"SpaceX" asoschisi Ilon Mask: "Sun'iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir". U mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi" deydi.

3

Mirza Azizovni xotirlab...

– Mirza aka hayotligidayoq mehnatlari qadr topdi, bir necha bor taqdirlandilar: O'zbekistonda xizmat ko'sratgan artist, xalq artisti, "E'tirof", O'zi o'qigan maktabiga "Mirza Azizov" nomi berildi. Mana, vafotlaridan keyin ham Yurtbosimiz "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi. Orden qo'limda turibdiyu, ko'z yoshlarim orden qutisiga tomayapti. Bu quvonch yoshi, inson qadri ulug'langan yurt ayolining iftixor ko'z yoshlari edi.

6

So'z zargari 70 yoshda

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tomonidan yubilyarga madaniyat va san'at fidokori ko'krak nishoni topshirildi. Institut rahbariyati ham esdalik sovg'alar va pul mukofoti bilan o'z hissasini qo'shdi. Fursatdan foydalanib, fidoyi kasb egasi Xatira Toshtemirovnaga uzoq umr, ijodiy barkamollik tilab qolamiz.

8

Shu kunlarda biz, ona tilimiz davlat tili maqomi olganining 34 yilligini keng miqyosda, o'zgacha shukuh bilan nishonlayapmiz. Bu bejiz emas, albatta. Zero, til insoniyat tamadduni uchun cheksiz ahamiyatga ega bo'lgan eng buyuk ixtirolardan biri. Til – millatning ruhi! Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi. Aynan muayyan tilgina millatning ma'naviyati, madaniyati, kognitiv tasavvurlari, milliy mentaliteti, o'ziga xosligi, turmush tarzi, urf-odati, etnopsixologiyasi, fe'l-atvorini anglatadi.

Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

ONA TILIMIZ – BUYUK VA BEBAHO MA’NAVIY BOYLIGIMIZ

 Folklor, hikmatli so'zlar, maqollar, dostonlar, qo'shiqlar, ilmiy va badiiy asarlar millatning ona tilida dunyoga keladi.

Mutaxassislar olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda sayyoramizda amalda bo'lgan yetti mingga yaqin tilning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi ekan. Vaholanki, tilning yo'qolishi umuminsoniy tamaddun uchun mislsiz katta yo'qotishdir. Axir har bir til, ushbu tilda so'zlashuvchi millat, elat, etnosning madaniy merosining yaxlit bo'lagidir. Shukurki, ona allasi bilan qulog'imizga kirgan, ong-shuurimizni, qalbimizni egallagan, ona tilimiz tobora rivojlanib, dunyo miqyosida o'ziga xos va mos o'ringa ega bo'lib bormoqda. Bugungi kunda yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishidan oshgani ham fikrimizni tasdiqlab turibdi. O'zbek tili vatanimiz hududidan tashqari Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiyada keng tarqalgan.

Buyuk o'zbek tilimiz qadimiylar ildizlarga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Tarixiy manbalar tilimiz, o'lkamizda hukm surgan hukmdorlarning davlat ishlarini yuritishdagi asosiy vosita – til bo'lganligini ko'rsatadi. Shu boisdan mashhur turk xoqoni Bilga xoqon va uning sarkardasi To'nyuquq o'z hayot yo'li aks etgan bitiktoshlarni shu tilda yozdirgan. Qoraxoniylar davrida yaratilgan, davlat boshqaruviga oid "Qutadg'u bilig" asari, Shayx ul-mashoyix Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar'i", buyuk sarkarda Amir Temurning "Temur tuzuklari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari ham shu tilda bitilgan.

Hazrat Alisher Navoiy umrboqiy asarlarini shu tilda yozgan, bu tilning boshqa tillardan qolishmasligini nazariy jihatdan "Muhokamat ul-lug'atayn" asari, amaliy jihatdan "Xamsa" asari va minglab g'azal, ruboilyari orqali isbotlagan. Bobomizning tilimiz ravnaqi borasidagi bu ishlari keyinchalik ham izchil davom ettirilgan. Ayniqsa, o'tgan asrning boshlarida tilimizga siyosiy tizimning salbiy ta'siri sezila boshlagach, jadid allomalarimiz til qayg'usini millat qayg'usi darajasiga ko'tardilar. Ular nafaqat vatan mustaqilligi, xalq erki

uchun kurashdilar, balki tilimiz sofligi, uning kelajagi xususida ham jiddiy ishlar olib bordilar.

Minnatdor bo'laylik, qancha-qancha qiyinchiliklar, to'siqlarga qaramay, ajododlarimiz tilimizni avaylab, butun jozibasi, kuch-qudratini asoslab, bor imkoniyatlarini dalillab, rivojlantirib, bizga yetkazib berishdi. Ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar. Shu orqali tilimizning umrboqiy bo'lishi, zamonlar osha o'lkamizda yangrashini ta'minlaganlar. Ajododlarimiz singari biz ham faxrimiz, qadrimiz bo'lgan ona tilimizni asrashimiz, kelajak avlodga sofligicha, bor jilosib bilan yetkazishimiz kerak. Hazrat Alisher Navoiyning "*Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz*", degan hikmati har kun, har soatda hayotiy shiorimizga aylanishi zarur.

Darhaqiqat, til – insонning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Shu sabab, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida doimo ona tilimizga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, joriy yilning 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ikkinchi bor o'zbek tilida nutq so'zlagan va ko'tarilgan global masalalar bo'yicha takliflar bildirgani ham fikrimiz isbotidir. Har bir xalqning tarixi, urf-odati va madaniyati uning tili orqali namoyon bo'ladi. Yurtboshimizning jahon minbarida turib, o'zbek tilida so'zlashi tilimiz ravnaqi va rivoji uchun o'z hissasini qo'shamoqchi bo'layotgan har bir fuqaro qalbida iftixor tuyg'ularini uyg'otishi aniq.

Kuni kecha, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi o'qib eshittirildi. Tadbirda jumladan, shunday deyiladi: "*Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu*

ezgu maqsad yo'lida amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasini tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda o'zbek tili nufuzli xalqaro anjumanlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan muntazam yangrab kelayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlash bilan birga, dunyoda ona tilimizni o'rganishga intilayotgan insonlar safini ham tobora kengaytirmoqda".

Hammamiz yaxshi bilamiz, bugun yoshlarimizga xorijiy tillarni o'qib-o'rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Biz ko'p tilni o'rganish-bilish tarafdomiz, albatta. Avaz O'tar o'gitini eslaylik: "*Zor o'limasun onlar dog'i til bilmay Avazdek, til bilmaganidin oni bag'ri to'la qondur*". Faqat har qanday xorij tilini o'rganish o'zbek tilini chuqur o'rganish orqali kechishini unutmaylik. Busiz bo'lmaydi. O'zining tilini chala-chulpa biladigan, ona tilida fikrlay olmaydigan shaxs o'zga tilni ham qoyillatib qo'yolmaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tilimiz xalqning eng nodir boyligi, ruhi va qanotidir. Zero, qalbimizdagisi hislarni, ongimizdag fikrlarni biz, avvalo, ona tilimizda ifodalaymiz. Shunday ekan, bugun ta'limgiz tizimida o'zbek tilini mukammal tarzda yoshlarga o'rgatish, ularga sof o'zbekona so'z va iboralardan foydalanishida yetarlichcha bilim hamda ko'nigma berish professor-o'qituvchilarning asosiy vazifasidir. Chunki ta'limgiz sifati taraqqiyot poydevori bo'libgina qolmay, vatanparvar yoshlarning kamol topishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilimizga bo'lgan mehr, hurmat va ehtirom yuksalaversin. Ulug' shoirimiz Erkin Vohidovning so'zlari bilan aytganimizda: "*Ona tili umummillat mulkidir, demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilli. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i kerak. Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir*".

Sharaf sizga aziz ustozlar!

O'zbekistonda 1-oktyabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Orzusi faqatgina o'quvchilarining kamolini ko'rish bo'lgan aziz va qadrli murabbiylarimizni dillarini hushnud etib, minnatdorchilik bildirish uchun aslida maxsus kunning hojati bo'lmasa kerak.

Zohidjon JUMANAZAROV,
"San'at va madaniyat sohasi menejmenti"
ta'limgiz yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Shunday bo'lsada 1-oktyabr murabbiylar kuni sifatida nishonlanishi ularga ko'rnatilayotgan yuksak e'tibordan darak beradi. Ustozlar haqida so'z yuritar ekanmiz, doimo Iskandar Zulqarnayn to'g'risidagi hikoya yodimga tushadi. U ishgi'l qilgan yurtining taxtiga birinchi bo'lib ustozini o'tkazar ekan. Bir kuni undan: "Nima uchun bunday qilasiz?" deb so'rashganda: "Ota-onam tug'ilishimga, ustozim esa yuksalishimga sababchi bo'lganlar", – degan ekan.

Ustozlarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliv qadriyatlardandir. Bugun O'zbekistonda ta'limgiz islohotlarining uzviy qismi bo'lgan o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishga oid ibratli ishlar jahoning ko'plab davlatlari tomonidan yuksak baholanib, mustaqillik yillarida to'plangan boy va ilg'or ma'rifiy tajriba sifatida o'rganilayotir. O'qituvchilarining kasb bayramlari arafasida yoshlarimizni vatanga muhabbat, sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlardan uchun muhammadiy tarbiyalayotgan, ustozlik kasbida halol va samarali ish olib borayotgan

ilg'or pedagoglar Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanishlari ham buning amaldagi tasdig'idir.

Men 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan mening katta hayotga qo'yan ilk qadamimga sababchi inson – mening matematika fani o'qituvchim Sultonova Diyora Ozodovna o'z minnatdorchiligidini bildirmoqchiman. Ustozimning 2019-2020-o'quv yilida kimyo xonasida aytgan "O'glim, chet tilini o'rgan, menin o'zim ham til biladigan odamga juda ham qiziqaman. Til bilganni – el biladi", – degan gaplaridan keyin chet tilini o'rganishga kirishidim va bu aytgan gaplari men uchun hozirgi kunda ham, kelgusi hayotimda asqotadigan maslahatlardan bira bo'ldi. Bu kabi maslahatlarni menga ustozim juda ham ko'p bergen va bu maslahati men uchun butun umrnga yetarli bo'ladi. Ustozim mana shu kungacha ko'plab marralarga erishdi. Jumladan, hozirgi kungacha o'quvchilarini tuman, viloyat, respublika, "Xalqaro matematika musobaqasi", "Ulug'bek izdoshlari", "Qorako'l olimpiadasi" va xalqaro

 1-oktyabr

"O'qituvchi va murabbiylar kuni"



Agar shogird shayhulislom, agar qozidur,
Agar ustoz rozi – Tangri rozidur.

Alisher NAVOIY

olimpiadalarda ishtirok etib, faxrli o'rnlarni olib kelmoqda. Undan tashqari Sultonova Diyora Ozodovna O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan O'zbekiston kasaba uyishmalari Federatsiyasi mukofoti Laureyati Respublika ko'rik-tanlovining 2-(viloyat) bosqichida faxrli 3-o'rinni egallaganligi uchun Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan III darajali Diplom va esdalik sovg'asi bilan taqdirlangan. Shu bilan bir qatorda Sultonova Diyora


Ozodovna 2021-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-maydag'i Farmoniga binoan ta'sis etilgan "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Bu esa, Ustozlarimizning barcha qilgan mehnatlari samarasi, desak mutlaqo adashmagan bo'lamic. Men bugungi kun bilan bir qatorda, 28-sentabr tug'ilgan kuni munosabati bilan chin yurakdan muborakbos etaman.

Ushbu maqolani sun'iy intellekt yozayotgan bo'lishi mumkin.

Buning hech ajablanarli joyi yo'q. Axir sun'iy intellekt xavf solayotgan kasblar orasida jurnalistika "front chizig'i"da turibdi. Masalan, "Associated Press" nashrida sun'iy intellektning qo'llanilishi yangiliklar sonini qariyb o'n besh barobarga oshirgan...

SUN'iy INTELLEKTNING

BOLALIGI



Bolalikda, Yo'lchi degan do'stim bo'lardi. Bo'sh-bayov ko'ringani bilan, har narsaga qiziquvchan edi. Atrofda qimirlagan mavjudot borki, tutib, ustida tajriba o'tkazardik. Suhbatlarimiz mavzusi yer yadrosidan galaktika cheksizligiga dovr cho'zillardı. Xayol og'ushida qolib, kattalar tayinlagan yumushlarni unutgan kezlarimiz kaltakni yeb, so'kishni eshitib, shumshayib o'tirarkanmiz, hayron bo'lardik: nima uchun kattalar bizni ish qilmasak urishadiyu, xayol surmaganimiz uchun koyimaydi? Tag'in o'ylardik, agar biz o'nimizga ishlarimizni bajaradigan robot ixtiro qilib qo'yib, o'zimiz xayol surib o'tirmoqchi bo'lsak, kattalar albatta xayol suradigan robot ixtiro qilib, bizni faqat mehnat qiluvchi vosita sifatida qoldirishni afzal ko'rishgan bo'lardi.

Bola tasavvurimizdagi shu yo'sin o'ylar keyin ham tark etmadi. Va kun kelib shunday antiqa ma'lumotlarga ro'para keldik: 1950-yili ingлиз matematigi va kriptografi Alan Turing texnologiyalar insonlarni aqlan ortda qoldirishi mumkinligi haqida maqola e'lon qiladi. Bu sun'iy intellekt sohasidagi ilk tadqiqot edi. Olimga turli e'tirozlar bo'lishiga qaramay, u qarashlarini o'zgartirmaydi, fikrlashda insondan farq qilmaydigan mashinalar haqida mulohazalar bildiraveradi.

"Sun'iy intellekt" atamasini ilk bor 1956-yilda Amerikalik olim Jon Makkart qo'llagan. Oradan 30 yilga yaqin vaqt o'tibgina u kashfiyat sifatida e'tirof etila boshladı. Ayniqsa, 1997-yilda shaxmat bo'yicha jahon championi Garri Kasparovni mag'lub qilgan mashhur shaxmat dasturi – "Deep Blue" yaratilgandan keyin bu soha bilan jiddiy shug'ullanish, yirik kompaniyalardan tortib to harbiy muassasalargacha mazkur sohani moliyalashtirish jadallahdi.

Yo'lchi bilan har ikkalasini ham tanlashni ma'qul ko'rardik: shaxsiy robotimiz bizga aqlan ham, jismonan ham yordamchi bo'lsa – uy vazifalarimizga ko'maklashsa, bergan savolimizga javob topsa, qo'ylarimizni boqsa, yer chopsha... Bugunga kelib, bola orzusidagi o'sha lavhalar sun'iy intellektning funksiyalari ekaniga duch kelyapmiz. Bilsak, sun'iy intellekt inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan jarayon, tizim, texnologiya ekan. Ammo u robotlarning turli sohalarga jalb qilinishi, inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Aksincha,

inson qobiliyatları va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishga xizmat qiladi. Uning eng muhim xususiyati – belgilangan vazifani bajarishda eng maqbul yo'lni tanlash va amalga oshirish qobiliyatidir.

Biz Yo'lchi bilan robotlarning insoniyatga xavf solishi borasida ko'p tortishib qolardik. Men bunday robotlar ishni odamday sifatlari bajarolmaydi, desam, u ortig'i bilan bajaradi, deb bahslashardi. Keyin men robotlar odamdan ham o'tkir fikrlab yuborishi mumkin, bu xavfli, desam, u robotlar bunday qilolmaydi, ular oddiy matoh xolos-ku, deb "egardan tushmasdi". Keyin bilsak, bunday "egar ustidagi" tortishuvlar dunyo miqyosida ko'pdan beri tinmas ekan. Kimsidir sun'iy intellekt bilan bog'liq ekologik va kiberxavfsizlik muammolariga diqqat qaratса, boshqalar uning ijtimoiy qulayliklarini sanaydi.

"Microsoft" asoschisi Bill Geyts: "Sun'iy intellekt raqamlı texnologiyalar tarixidagi to'rtta eng muhim bosqich orasida o'zining muhim o'rniga ega", deb e'tirof etsa, Xitoyning Sinxua universiteti professori Shen Yan shunday munosabat bildiradi: "Sun'iy ongning inson qobiliyatı darajasigacha yuksalishi kelajak tensiyasi edi. Koronavirus kelajakni bugunga olib kelib qo'ydi. Sun'iy intellekt insondagi muayyan qobiliyat o'mini bosarkan, alaloqibat o'sha qobiliyatimiz so'nib boraveradi. Shunday ekan, agar inson o'zining ma'naviy saviyasi va maydonini kengaytirmasa, ijtimoiy funksiyalar qiymati sezilarli darajada pasayib ketadi".

"SpaceX" asoschisi Ilon Mask: "Sun'iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir". U mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarini keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi", desa, "Microsoft" rahbari Bill Geyts uni qo'llab quvvatlaydi: "Bu borada Ilon Maskning fikriga qo'shilaman. Bir necha o'n yildan so'ng robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman". Bu kinoyaga "Facebook" egasi Mark Suckerberg shunday javob qaytaradi: "Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun'iy intellektning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobji natijani esa yaqin 5-10 yil ichida ko'ramiz".

AzzAR loyihasi asoschisi hamda Sun'iy intellekt maslahat kengashi rahbari Bobur Rahimov ham o'rinni mulohaza bildirgan: "Agar tarixga chuqurroq qarasak, har bir texnologik innovatsiya jamiyatda qo'rquvg'a sabab bo'lgan. Bu yangi ixtirolarni ko'rgan odamlarning odatiy munosabati. Fiziologik jihatdan bizning miyamiz shunday qurilgan, u yangi narsaga o'rganmaganligi sabab unga xavf sifatida qaraydi. Tinch yo'nalishda qo'llanilgan deyarli barcha ixtiolar u yoki bu tarzda qulaylik keltirgan va hayot sifatini oshirgan".

Tortishuvlar, qizg'in bahsu munozaralar qancha davom etgan taqdirda ham, sun'iy intellekt masalasida bir fikrni qat'iy ta'kidlash joiz: "Bu borada endi umuman ortga yo'l yo'q! Endi undan faqat yaxshilik yo'lda foydalanishga hissa qo'shish kerak xolos".

Robotlar haqida xayol surishning eng yoqimli nuqtasi – ular o'rnimizga barcha yushmanlarimizni bajarishi va biz ertalabdan-kechgacha uxlashimiz, hech narsa qilmay yotaverishimiz edi. Mol-qo'y boqmasak, tomorqadagi ishlarga qarashmasak, dars ham qilmasak. Qayda... Kunlarning birida ko'richak bilan og'ridim. Shifoxonada naq o'n kun yotdim. Qo'shni karavotdag'i chol varaqlab chiqqan gazetani o'qiyerib, teledasturlaru munajjimlar bashoratigacha yodlab oldim. Keyin deraza yonida bekinib turib, tashqaridagilarga hushtak chalib bekinib, ularning alanglashini tomosha qilishga odatlandim. Xullas, zerikib ketdim. Shunda angladimki, inson hech qachon mutlaqo bo'sh qolmasligi kerak. Albatta, doim nima bilandir band bo'lishi shart!

Epidemiya taraqqiyotni bir qadar tezlashtirib yuborgach, ijtimoiy zaruratdan kelib chiqib ko'plab zamonaviy texnoyangiliklar dunyoga keldi ham ommalashdi. Bu borada sun'iy intellektning bir qator hayratlanarli funksiyalarini ham sanash mumkin. Ammo bu funksiyalar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar soha tadqiqotchilarini xavotirga solmoqda. Jumladan, Amerikaning "Goldman Sachs" banki yaqin 10 yil ichida sun'iy intellekt tufayli jahon mehnat bozorida 300 millionga yaqin xodim ishsiz qolishini bashorat qilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralari, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish ommalashmoqda, hatto politsiya xodimlarining ba'zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko'rinishini imkon qadar odamlarniga o'xshatishga urinishmoqda.

Bunday vaziyatda dunyo bo'ylab ishsizlikning keskin ortib ketishi tabiiy. Ehtimol, xavotirga tushish no'o'rindir: inson hayotiga xavf tug'diruvchi hamda kreativlikka asoslanmagan ish o'rinalarining kamaygani u qadar katta muammo emasdir. Balki, bir maromdag'i bunday ishlarni robotlar bajargani, inson esa faqat tabiiy tafakkurga tayanuvchi vazifalar bilan shug'ullanib, hayotini mazmunliroq yashagani yaxshidir, deb o'ylaysan kishi.

Suratlarga qarab turib, Yo'lchini o'ylayman. Bu suratlar o'sha paytlarda chizilganda Yo'lchi nima degan bo'lardi: "Baribir men chizgan qorbobo boshqacha. Mening qorbobomga ko'zing tushsa, iljayorganingni sezmay qolasan. Bu suratlar esa qandaydir sovuq tikiladi. Sen ham sovuq qaraysan ularga. Iljaymaysan. Bolalar, qancha qorbobo kerak bo'lsa, menga kelinglar, yiqilib qolsam ham mayli, hammangizga chizib beraman! Hammangizga!"



Shavkat Do'stmuhammad BOBOMURODOV, "Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish" bo'limi boshlig'i

Ammo butun insoniyatning yoppasiga yaratuvchanlik majbriyati bilan yashagani ham odamni xavotirga soladi. Buni oddiygina ko'richakdan davolanib, o'n kun to'shakda yotgan bolaning zerikish oqibatida xayoliga kelgan qing'irliklar misolida ham ko'rish mumkin...

Yo'lchi surat chizishga usta edi. Bir kuni maktab devoriy gazetasiga qorbobo suratini chizib berdi. Do'ndiqqina qorboboning iljayib turgan tasvirini ko'rgan sinfdoshlar lol bo'lib qolishdi. Tabiiyki, men ham hayratlandim. So'ng esdalik uchun daftarimning orqa sahifasiga xuddi shu suratni chizib berishini so'radim. U ishtiyoq bilan, xuddi o'zi chizayotgan qorboboday iljaygancha ishni yakunladi. Men juda mammun bo'ldim va sinfdoshlardan biriga ko'satib maqtandim. Uning ham havasi kelib, daftarini ko'tarib bordi. Keyin boshqa sinfdoshlar galma-gal borishdi. So'ng qo'shni sinfdagar...

O'shanda u yetmis ikkinchi suratni chizib tugatarkan, rangi dokaday oqarib, ko'zlar qizarib ketdi, ko'ngli behuzur bo'lib, hushini yo'qotar darajada sulayib qoldi. Sinfoshlar bilan uni uyiga suyab olib ketdik. Ertasi kuni kasal bo'lib darsga ham kelolmadi. Biroz tuzalib, tili kalimaga kela boshlagach, ilk suhabatimiz shunday mavzuda bo'ldi: "Bir robotimiz bo'lsa-da, biz aytgan narsanining suratini chizib tashlayversa..."

Bugun esa "Midjourney Artificial Intelligence" platformasi berilgan ta'rifga ko'ra personaj qiyofasini chizib bermoqda. Bu tizimdan milliy adabiy asarlarimiz qahramonlarining ta'rifasi asosida foydalanib ko'rilibdi. Dastlab Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida keltirilgan izohga ko'ra Kumush qiyofasi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi. So'ng Otabek, keyin Zaynab. Sun'iy intellekt taqdim etgan suratlarni ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari filmdagi aktyorlarga o'xshab tasvirlanganini ta'kidlashgan. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanı qahramoni Ra'no suratining esa asardagi ta'rifga juda mos kelgani haqida yozishgan.

Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" kitobidagi dev va Hoshimjon, "Alpomish" dostoni qahramonlari Alpomish, Barchin qiyofalari, Sohibqiron Amir Temur va Boyazid Yildirim, Umarshayx Mirzo va Mirzo Ulug'bek suratlari, "Boburnoma"da keltirilgan ta'riflar asosida shaxs, voqeа va joylarning illyustratsiyalari ham tarqaldi.



Doniyor MIRZO,
shoir

Ona tilim

Nafis erur, nafis naqadar,
Ona so 'zm-u yoki u padar.
Bizning o 'zbek, ona tilimiz,
Zar buлоqda qaynab yotgan zar.

O 'z tilingda avji pallasi,
Mug 'anniyning mungli yallasi.
Boshlanajak beshik boshidan,
Volidangning aytgan allasi.

Mavj urajak, imlo-yu imdod,
Sarbon erur ega, kesim, ot.
O 'zbekona lutfu karamlar,
Dilda, tilda yashar barhayot.

O 'z elingga, eshdir, egizdir,
Ash 'oringga, o 'zak negizdir.
Ona tiling bo 'lmasa magar,
Hayotingga bezak ne so 'zdir.

O 'zbek tili asrandi emas,
Qoralagan kim u, non yemas?
O 'z tilidan kechgan kimsani,
Ona tili o 'z bolam demas.

O 'z tilingda o 'zbek maqomi,
O 'zingniki pishig '-u xomi.
Olam aro ona tilimning,
O 'zbekchadir, o 'zbekcha nomi.



Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!

Ilk bor tanitganding harflar turin,
Senla tarqalgandir, quyoshning nurin,
Bugun anglayapmiz ilming sirin,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan,
Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!

Hayotning u yoki bu sohasida,
Borsan har yumushning sarlavhasida,
Rahmatlar, olqishlar senga aslida,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan,
Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!

Goh shirin, goh achchiq o 'gitlar bilan,
Eng baland parvozli yutuqlar bilan,
Muhimi sof, ezgu maqsadlar bilan,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan,
Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!

Sen borsanki, olimlar, fozillar bisyor,
Sen borsanki, yetuk tabiblar bisyor,
Har bir kasb umidi sensan va takror,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan,
Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!

Qara, shogirdlaring senga gul tutib,
Bir bor rahmat aytmoq imkonin kutib,
Shoshilar bayramla qutlar entikib,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan,
Sen bugun – kelajak avlod naqshisan!


Umida XURRAMOVA,
“Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta 'lim
yo 'nalishi 1-bosqich talabasi

Kuz

Oyu kunlar ham o 'tib,
Mana yetib kelbsan,
Oltin seplaring yoyib,
O lkamga xush kelbsan.

Mevaga kon bog 'imda,
Bu kun seni uchratib,
Bir zum hayolga toldim,
Shuncha ziynating ko 'rib.

Marhamatli ekansan,
Ketdim ko 'rib quvonib,
Yam yashil gul bog 'imni,
Barglarini to 'kibsan.



Nozima ULUG 'OVA,
O 'ZDSMI Nukus filiali
4-bosqich talabasi



Hafiza ALIBEKOVA,
“Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta 'lim
yo 'nalishi 2-bosqich talabasi



Yoshlik

Yoshlik o 'tdi, bir afsona bo 'lib,
Bahor keldi, har doim parvona bo 'lib,
Yoshlikdag'i suratlar esdalik bo 'lib,
Yoshlik toshqiniga mastona bo 'lib,

Yoshlikda bahor ham kulib boqar,
Sharsharalar ham toshqin oqar,
Yoshlikning qadriga yetdi bahor ham,
Yoshlikda bo 'lmadi hech kimda g 'am.



Jamshid UMRZOQOV,
Urganch davlat universiteti
2-bosqich talabasi

O 'zbekistonim

Bayrog 'imiz mag 'rur uchar osmonda,
Parvoz qiling, shu buyuk yurt zamonda.
Lek, bir gapni aytay do 'stim sizlarga,
Yurtboshimiz ishonursiz bizlarga!

Jonlar fido, bu o 'zbegim yurtimiz,
Temur, Bobur, Buxoriy avlodimiz.
Navoiy va Avloniyalar bizlarni,
O 'chmas mangu nur sochar avlodimiz!

Qalbimizda mangu xalqim duosi,
Ajodolarim qoldirgan bu merosi,
O 'zbekiston gulla-yashna, parvoz qil,
Serquyosh yurt farzandisan, shuni bil.

Ko 'm-ko 'k dala, oq oltinga boyligim,
Osmonlarda nur sochgin chiroyligim,
Bir qariching oltin, zarga alishmam,
Nomining ulug ' dunyo tanir o 'zbegim!

KIMNINGDIR YURAGIDA BOMBA BOR

Hikoya



Qo'chqor NORQOBIL,
O'zDSMI dotsenti,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Ular o'ttiz yildan so'ng Sankt-Peterburgda uchrashdilar: iste'fodagi harbiy vrach va oddiy askar.

— Janob... — ikkilanib turdi askar.

— Polkovnik deyaver, — jilmaydi qariya. — Yaxshisi yur, xilvatroq biror kafega boramiz. Uh-h, juda salobatli, katta odam bo'lib ketibsan-ku. Mana, men esa keksayib qoldim.

Shahar chetidagi saranjom kafega kirishdi. Tabiiyki, yemak va ichimlik buyurishdi. Afg'on urushini eslashdi. Ezilishdi. Ichishdi...

— Yodingizdam, gospitaldan chiqayotganimda qo'limga har biri tiroqday keladigan olti dona temir parchasini bergandingiz?.. — oradan shuncha yil o'tsa hamki, "Askar"ning o'ng biqini va so'l qo'lidagi chandiq, g'adir-budur tirtiqlarida qaytadan og'riq qo'zg'alganday bo'ldi.

— Esimda, albatta, esimda! Rostini aysam, jonig toshdan ekan. Snaryad sochmalarini terib olganman-a...

...Vaqt o'tadi. Hamma narsa o'zgaradi. Odam ham. O'sha yarador askar yozuvchiga, kapitan unvonidagi harbiy vrach polkovnikka aylanishi mumkin. Faqat bir narsa o'zgarmaydi: keksaymaydi, o'lmaydi ham! Bu — xotira! Ayniqsa, yozig'iga bitilgan dahshatli og'riq — urush girdobidan chiqqan ruhiyati rasvo odamlarning xotirasiga baloning o'qi ham bas kelolmaydi. Ajal ajratolmaydi.

Yetmish yoshdan oshgan bo'lismiga qaramay, polkovnikning xotira ko'zgusi aslo xira tortmagan, aksincha, yillar o'tgan sayin yanada yarqirab, tiniqlashib bormoqda ediki, gohida u o'zini urush qa'rida his qilar, o'tgan o'sha kunlarining ikir-chikirlarigacha oniyatda xayolida jonlanardi.

Hozir ham shunday bo'ldi: polkovnik jarrohlik stolida qonga bo'yilib yotgan qorako'z, qoraqosh askarning ilviragan tanasidan "ajal tinoqlari"ni bitta-bittalab kovlab olarkan, qo'lidagi jaroh tig' hamda qaychiga qop-qora quyuq qon chippa yopishib qolayotganini ko'rib turardi. Ko'p qon yo'qotgan chala murda o'g'lonning yuragi so'nggi umid iljinida behol o'rayotganini ham his qildi. Va niyoyat, ilma-teshik tanadan oltinchi bor tugmadekkina temir parchasini sug'irib oldi. Stol chetidagi kumush idish oltinchi bor jaranglidi: bu jarang vrachga tiriklik jarangi, hayot qo'nig'iog'i bo'lib tuyuldi. Ko'ngli xotirjam tortdi. "O'g'lon baraka top, bardosh berding! Sen yashaysan!.."

— O'g'lon, baraka top. Bardosh berding! Sen yashaysan! — deb yubordi polkovnik beixtiyor bir nuqtadan ko'z uzmay.

— Nimadir dedingizmi, janob polkovnik?

Polkovnik boshqa dunyoda edi. Xotira qa'rida, urush

Dil izhori

Ilm-ma'rifatdan dilga yo'l ochgan,
Qalblarga beminnat mehrini sochgan,
Go'yo quyosh tafti yuzida ko'chgan,
Siz sabab har mahal baland parvozim,
Baxtimga bor bo'ling aziz ustozim!

Sizga ta'zim USTOZIM



E'zoza JO'RABOYEVA,

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
ta'lim yo'naliishi 1-bosqich talabasi

Ko'nglimda ishonchning murg'ak tomirlarini uyg'otgan va uni kelajak orzulariga payvand etgan ustozim! Shogirdlariga faqat ta'lim bergen o'qituvchi mutaxasis tayyorlaydi. Shogirdlariga ta'lim-tarbiya bergen o'qituvchi esa insонни hayotda o'z o'rnni topishida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Mening ustozim Erkin Xolmirzayev 1966-yili Qibray tumani Burota qishlog'ida tug'ilgan. Millati qozoq. Men o'qigan tumandagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlagan.

Ustozim mehnat faoliyatlarini 1992-yildan 1998-yilgacha Qibray tumanidagi Energetika kasb-hunar kollejida rus tili va adabiyoti o'qituvchisi o'rnbosari lavozimida, 2000-yildan 2019-yilgacha kollejda "Chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'qituvchi lavozimida faoliyat olib borgan. Hozirgi kunda 28-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'qituvchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Mening ustozim mening faxrim, — deb bermalol faxr bilan ko'ksim to'lib fahrlanib ayta olaman. Chunki haqiqatdan ham bizga hamma bilimni yetarli darajada bera olganlar. 2009-yilda "Chaqiriqa qadar yoshlarni boshlang'ich tayyorgarlik" bo'yicha "Eng yaxshi ta'lim muassasasi va eng yaxshi chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fan o'qituvchisi ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egallaganlar. 2010-yilda "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlashgan. 2014-yilda "Eng yaxshi ta'lim muassasasi va eng yaxshi chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fan o'qituvchisi" ko'rik - tanlovida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni olganlar. Ustoz o'z bilim va tajribalaridan kelib chiqib, bizlarni yuqori natijalarga erishishimiz uchun o'zlarining bilim va tajribalarini biz yoshlarga o'rgata olgan.

Biz shu kungacha erishgan yutuqlarimizning ortida ustozimning katta mehnati bor. Har bir o'quvchining mahorati qay darajada ekanligiga qarab yo'naltira oldilar. Bizga ustozimning o'rgatgan bilimlariga asoslanib guruhimiz bilan birlgilikda Respublika miqiyosida o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vaziri kubogi" uchun mahalla yoshlari o'ttasida tashkil etilgan "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasida 2-o'rinni olganmiz. Yana bir yutug'imir Respublika bosqichida o'tkazilgan tadbirda ham g'oliblikni qo'liga kiritganmiz. 2020-yilda Davlat havfsizligi hizmati chegara qoshinlari tomonidan o'tkazilgan tadbirda "Yosh chegarachilar" musobaqasida fahrli 1-o'rinni egalladik.

Ustoz siz uchun eng oliy mukofot, bu bizning munosib shogirdlar bolib, o'z yo'limizni topishimiz va bizni tarbiya qilgan barcha ustozlarga munosib bo'lishdir. Siz bir vaqtlar murg'ak ko'ngillarga qadab ketgan yaxshilik nihollari bugun ulkan chinorlarga aylanmoqda. Qilgan mehnatlarining qadr topib, kelajak uchun xizmat qilishda davom etmoqda.

Haqiqatdan ham, ko'z nuri va qalb qo'rini, butun hayotini yosh avlodga bilim va tarbiya berishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga bag'ishlangan, bir so'z bilan aytganda, vatanimizning ertangi kuni poydevorini yaratgan sizdek insonlarning olijanob mehnatiga har qancha tahnin aysak oz.

girdobida qolgandi. Uning gapini eshitmadni. "Askar" yana takrorladi:

- Nimadir dedingizmi?
- A-a-a? O'zim... shunchaki. Xayolim qochdi. Uzr...
- Sizdan bir narsa so'ramoqchiman...
- Xo'sh...
- Siz tanamdag'i temir parchalarini olib tashlab, meni o'limdan saqlab qoldingiz. Lekin...
- Nima lekin?
- Lekin mana bu yerimda, — u ko'ksiga urdi, — yuragimda nimadir, aniqrog'i, bomba bor. Qo'rquyapman, bir kuni portlab ketmasmikan?
- Polkovnik seskandi. Unga tikildi.
- Men ham qo'rquaman, — dedi ovozi titrab.
- Siz nimadan qo'rqsiz?
- Menga ham shunday tuyuladi. Xuddi yuragimda portlamay qolgan minami, bombami cho'kib yotganga o'xshaydi. Ochig'i, bir menda shunday tasavvur bo'lsa kerak, urushning musibati bu, deb o'ylardim, — ihrandi polkovnik. — Demak, senda ham...
- Endi shunday yashayveramizmi?
- Boshqa iloji yo'q! Men Sening yuragingdag'i bombani olib tashlay olmayman. Dunyodagi hech bir jarrohning qo'lidan kelmaydi bu...

Ular bir-biriga tikilishdi. Xuddi og'ir jangdan so'ng, ko'ngli ag'dar-to'ntar, yuragi nimta-nimta bo'lib, qo'rquvdan tosh qotib, garangsib, nima qilarini bilmay qolgan karaxt ahvoldagi jangchilar kabi... ikkovining ham mung qotgan ko'zlarida iztirob yoshlari qalqidi.

...Ha-a, bu holatni hamma ham tushunavermaydi. Buni qaqshatqich jang, o't-olov — o'lim changalidan tirik murda bo'lib chiqqan jangchilar yaxshi biladilar.

Boshqalar-chi? Boshqalar ehtimol, unchalik his qilisholmas. Lekin urush odamlarining har birining qalbida portlamay qolgan bombalar borligi, ular urushdan shu xatarli xavfni ko'tarib qaytganini tushunib yetsak, dunyodagi barcha urushlarning bombalari millionlab kishilarning yuragida tiqilib yotganini anglasak, "urush" degan so'z jahon xalqlari lug'atlarda allaqachon eskirib, chirib ketardi. Urush odamlari o'z "bomba"larini yer ostiga-da o'zlari bilan birga olib ketadilar. Shunday, zamin qa'rida jang ko'rgan odamlarning ko'ksida portlamay qolgan bombalar ham ko'milib yotibdi.

Agar buni urush ishtiyoqidan huzurlanadigan katta-katta davlatlarning rahbarlari, katta-katta generallar, jangari harbiylar his qilishganda edi, charxidun charxpalaginining tig'larida ham chechaklar barq urib, barcha o'qotar qurollarning "og'zi"da gullar ochilar, ro'yi tuproq chamanzorga aylanardi.

...Tong chog'i "askar" polkovnik bilan xayrashdi. Toshkentga uchdi. Samolyot oynasidan pastga qararkan, yuragi chimillab og'riganday bo'ldi. Tubanda, ona yer ustida o'zi kabi qanchalar qismatdoshlari borligini his qildi. Lablari pichirladi, o'ziga o'zi gapirdi:

- Ularning ham yuragida bomba bor. Ular bilan gaplashganda ehtirot bo'ling, odamlar! Bomba bor!
- Nima? Nimadir dedingizmi? — pishilladi yonidagi barvasta kishi ko'zlarini olaytirib.
- Bomba bor, deyapman!
- Qayerda bomba bor?
- Qo'yavering, bilishingiz shartmas...

Barvasta shosha-pisha, tepadagi chaqiruv nuqtasini bosib, styuardessani chaqirdi.

Birdan samolyot ichi, salonda besaramjonlik boshlandi.

"Askar" esa uyquga ketgandi...

Mirza Azizov qanday rol ijro etmasin, butun vujudi, iste'dodi va mahorati bilan o'sha obrazni to'la talqin etdi va o'zidan o'chmas nom qoldirdi. Aktyorning o'zbek kinosi va teatrida o'z o'rniqa, hurmatiga ega bo'lishida sevimli rafiqasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, elimizning sevimli xonandasasi, xalqimiz ardog'idagi san'atkori Tojibar Azizovaning hissasi katta. O'z navbatida xonandan sermahsul ijod qilib, muxlislar hurmatiga sazovor bo'lishida, xizmat ko'rsatgan artist darajasiga yetishida turmush o'rtog'inining salmoqligi ulushi borligi shubhasiz. Tojibar Azizova bilan bo'lgan suhbatimiz shular to'g'risida, go'zal juftlikning umr yo'llari, ibratli turmush tarzi haqidagi...

Mirza AZIZOVNI xotirlab...

- Yo'llar ovullarni qishloqlarga, qishloqlarni shaharlarga bog'laydi. Mamlakatimiz markazidagi oliygochlari sabab ba'zida yoshlarning ko'ngil rishtalari ham bir-biriga bog'lanadi. Taqdir sizning hayotingizni Mirza Azizov bilan qanday bog'ladi?

- Kirish imtihonlarini topshirayotganimizda Zulayho Boyxonova, Mirza aka uchalamish tanishib, do'st bo'lib qolganmiz. Beshyog'ochdagisi anhor bo'yida imtihonlarga tayyorlanardik. O'sha paytdayoq Mirza akaning dunyoqarashi, fikrlashi, bilimi, iqtidori bizdan ancha balandligi sezilib turar edi. Chunki qaynotam ham diniy, ham dunyoviy bilimga ega, juda ziyyoli inson bo'lib, eng aqlyi yetuklik davrida — 65 yoshida Mirza aka tug'ilgan ekan. U aqli, bilimi bo'lib, Zulayho ikkalamiz juda sodda bo'lganimiz uchun maslahatlarini ayamas edi. Talaba bo'ldik, Mirza aka kursimiz sardori bo'ldi. Butun kursda aqlo zakovati, salohiyati, iqtidori, bariton ovozi, boshqaruvchilik, aktyorlik mahorati, kiyinish madaniyat bilan ajralib turardik. Men o'qishni tugatib, qishlog'imga qaytaman deb o'ylaganim uchunmi, turmushga chiqish xayolina ham kelmag'an. Namanganlik qizlarga "Mirzani mahkam ushlangar, turmushga chiqsanglar, shunday yigitga turmushga chiqinglar", — deya tavsiya qillardimu, o'zimning hayotim u bilan qanday bog'langanini bilmay qoldim. 3-kursda o'qiyotganimizda 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramida menga chiroli lolalar sovg'a qilgan...

Uyimziga sovchilikka kelgan qaynonam Muhabbatxon oyijonim ota-onamda yaxshi taassurot qoldiganlar, ular birinchi borganlaridayoq to'yimziga rozilik borganlar. Chunki qaynonam juda madaniyatli ayl bo'lib, biz yoshlarning Toshkentda yashab, ijod qilishimizni istashini aytgan. Bu fikrlari ham otanomaga ma'qul kelgan. 5-kursni tugatganimizdan keyin to'yimiz bo'lgan.

- Eshitishimcha, yangi oila qurban vaqtaringizda turmush o'rtog'ingiz harbiy xizmatga ketgan ekan. Har gal Mirza aka sizni ko'rgani kelgunlaricha do'ppi tikib, yo'l xarajatlarini qoplaydigan mablag'ni yig'ib qo'yar ekansiz. Shu to'g'rimi?

— Qaynona oyim olamdan o'tganlardan keyin biz farzandli bo'ldik. Mirza akam Mudofaa vazirligining ansamblida ishlardi. Harbiy xizmat (2 oylik mashg'ulot) ni o'tash uchun Farg'onaga ketganlar. Har haftada bizni ko'rishga kelar edi. Tirkchilik tashvishida do'ppi tikishni o'rganishga qaror qildim. Bu san'atni shunchalik mehr bilan egalladim-ki, boshqa qizlarning do'ppilar 8-10 so'mga sotilsa, mening birinchi do'ppimni 18 so'mga sotib olishgan. U paytda bu juda katta pul edi. Keyinchalik esa do'ppilarim narxini 20-24 so'mgacha chiqqaranman. Barmoqlarim, tirnoqlarim ichi yiringlab ketsa ham chidar, do'ppi tikishni to'xtatmas edim. Chunki shanbagacha xo'jayinim kelishlariga yo'lkira tayyorlash uchun, haftada bitta do'ppini bitirishim kerak edi. U pulimni olmayman, desa ham, boshqalardan pul so'ramasliklari uchun o'zim olishga ko'ndirardim. Lekin men qaynalganman desam, noshuklik qilgan bo'laman. Chunki menga qayinopalarim Mukarram, Manzura, Matluba, pochchalarim Nabixon aka, Faxriddin aka, Jo'raxon akalar ham yordam berishgan. Ammo hamma kamchilikni ularga aytolmasdim. Hadeb birovdan yordam kutish ham insofdanmas-ku...

Qiz bolanagi hayotdagi ustozni onasi bo'lishi tabiyi hol. Men ham onamdan ko'rganlarimni qillardim. Har qanday sharoitda ham turmush o'rtog'imning hurmatini joyiga qo'yardim. To'y-hashamlarga shoshib ketayotgan bo'lsam ham ostonadan birinchi bo'lib chiqmasdim. Onam rahmatlik hamisha "eringizning yuziga tik qaramang, yurganda orqasidan, ya'ni, ikki qadam ortda yuring, hech qachon yonida yurmang", — derdi. Hamisha shu nasihatlariga amal qildim.

- Hayotda qaynalgan, san'atga qo'l siltab ketishni xohlagan vaqtaringiz bo'lganmi?

— Yo'q, menda san'at sohasidan ketish haqida fikr bo'lmagan. Negaki, bu soha kishilari hech qachon dilimni o'ritishmagan, o'zim ham bunga yo'l qo'yaganman. Aksincha, turmush o'rtog'im bilan ikkalamiz hamisha elga manzur qo'shiq va obrazlar yaratish ishtiyoqida bo'lganmiz, bir-birimizni qo'llab-quvvatlaganmiz, ilhomlantirganmiz. Ehtimol, bu oilada har ikkalamizning ham san'atkori bo'lganligimiz uchundir, balki bir-birimizning qalbimizni so'zsiz tushunganimiz uchundir... To'g'ri, Toshkentga ko'chib kelgan paytlarda juda qaynalganmiz. Qoqlib,

turtilib, yetishmovchiliklarga sabr qilib, yana olg'a intilavergamiz. Agar insonning nafaqat oиласида, ko'nglida xotirjamlik va o'ziga ishonch bo'lsa, yonida suyanadigan kishisi bo'lsa, hamma qiyinchilikni yenga oladi.

- Mirza Azizov institutda 5 yil emas, balki 6 yil o'qigan ekan. Buning sababi nima?

— To'g'ri, ammo bu kursda qolgan yoki biron muammo sababli emas, o'zining xohishi tufayli. Mirza Azizov yuqorida aytganimdek iqtidori, lider talaba edi. Uning ovozi juda kuchli edi. Shuning uchun Moskvadagi konservatoriya ham taklif qilishgan. Onasi "oilangizni olib ketavering", deb rozilik bersalar ham, "men kichik o'g'ilman, onajon, sizni tashlab ketolmayman", deb bormagan. 5-kursga o'tganimizda esa vakonli yanada mukammalroq o'rganish uchun 4-kursni boshqatdan o'qigan. O'sha paytda hamma hayron qolgan, hozir ham bunga ishonish qiyin, ammo haqiqat shu. Bunday talaba oliy ta'lim tizimi tarixida yagona bo'lgan bo'lsa kerak. Shu voqeanning



Tubanlik



uchun sharoit yaratib berishga harakat qiladi, ola, bolalar tashvishini o'z zimmasiga oladi. Sizlarda-chi? Bir oilada ikki san'atkoring ijod qilishi qanday muammo va quayliklar yaratadi?

— Mening san'atda o'z o'nimni topishimda bergan yordamlarini aytib, adog'iga yetolmayman. U kishisiz hatto ovoz yozish studiyasida qo'shiq yozolmasdim. Vokalda chuqur bilimga egaliklari uchun qaysi so'zda qattiq nafas olyapmanu qaysi so'zda oxirgi harf eshitilmay qolayotganiga ilg'ardi. Mustaqil yozgan qo'shiqlarimni avval uya olib kelib, Mirza akamga eshitiramsa, "Bir tiyinga qimmat yozgan qo'shig'ing, Tojibar, ovozing chirolyi, darding bor, so'zni g'ajisaysan, so'zni yeysan! Odamlarning joniga tegadi-ku!" — deb qayta ishlashga majbur qillardı. Syomkadan charchab kelsalar ham, bolalar uydá yolg'iz bo'lsa ham, men bilan yarim tungacha studiyada o'tirardi. Biron marsta norozi bo'lganlarini ko'rmagmanan. Ayniqsa, u kishi she'r tanlashda injiq edilar, chunki she'riyatni yaxshi tushunar, she'r yoqmasa, o'zgartirar, bu satrlar shoirlarga ham juda ma'qul kezar edi. Shu darajada ilmi va zukko inson edi-ki, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab,



Maxtumquli, Nodirabegim g'azallarini chuqur tahliq qillardı.

2001-yilda bolalarim yosh bo'lishiga qaramay, meni san'atkolar bilan xorija, naq 40 kunlik safarga jo'natgan. Bolalarimi so'rab har kuni telefon qilsam: "Hoy, Tojibar, bolalarimi oyoqqa turgazguncha rosa qynalding. Damingni olsang-chi, yana qachon borasan Fransiyaga, bolalarni bog'chadan oldim, ovqatantirdim, mana, uxbal yotishibdi, mazza qilib dam olsang-chi", deb meni tinchlantrirdi. Men uchun, mening san'atim rivoji uchun nima lozim bo'lsa, shuni qilganlar.

- Aktyorning kino muxlislar oлqishiga sazovor bo'lgan "Tubanlik" filmidagi 13 yoshi qizni xotinlikka oлgan Turg'un domla obrazi millionlab tomoshabinlarning "nafrat" ini qo'zg'adi. Hattoki, bunday holatlarni inkor etuvchi, "Jamiyatimizdagi yo'q illat"ni sahnaga olib chiqqani uchun aktyorga qarshi norozilik bildirgan ba'zi odamlar va tashkilotlar ham bo'lgan ekan. Bu nechog'lik haqiqatga yaqin?

— Aslida "Tubanlik" filmi suyjeti voqelichkeit asoslangan. Bir kuni Mirza aka syomkadan kelib, og'ir xo'sinisib, "judaxunuk sahnani suratga oldik, agar voqealar aslicha berilsa, xalqimiz buni ko'tarolmasa kerak", — dedi. Kino tayyor bo'lgach, oilamiz bilan premyera bordin. Qarasam, Mirza aka xuddi o'ziga notanish filmni ko'rayotgandek butun vujudlari bilan tomosha qilayaptilar. Biz ham dahshatga tushib, kino ichiga kirib ketdik. Orqa o'rindiqda o'tirgan ayollar: "bu aktyorni yaxshi ko'rardim, bu..." deb Mirza aka nomiga haqoratlar yug'dirib tashlashdi. Kelinim "Adajomni shu..." deb pinjimga tijqilgan... Men ham kinoligini unutib qo'yib, Mirza akadan qo'rqa boshladim, "uya borsa bir dasturxon atrofida qanday o'tiraman bu odam bilan", — deyman o'zimga o'zim. Kino tugadi. Mirza akan odamlar o'rab olgan, kimdir olqishlaysdi, kimdir so'kadi. Biz yonlariga yaqinlasholmadik. Shunda bir ayol oldimga kelib, "siz qanday yashayapsiz bu odam bilan, sizga haykal qo'yish kerak", desa bo'ladimi! Men onaxonga "bu kino..." deya tushuntirishga harakat qildim. U olomonning orasiga suqilib borib, Mirza akamni haqoratlab ketdi. Uyga kelgach, holatimni tushuntirsam, "haliyam dahshatl sahnalarini olib tashlangan", — dedilar.

- O'lada erkak kishi san'atkori bo'lsa, ko'pincha, rafiqasining bema'lol ijod qilishi

Premyeradan keyin "Abu Saxiy" bozoriga borib, do'kondan ko'ylak xarid qilayotsam, ortda qolgan Mirza aka salom berib, do'konga kirib keldi. Uni ko'rgan sotuvchi: "E, siz shu odamning xotinimisiz? Boring, men sizga narsa sotmayman", deb menga ko'ylak sotmasa deng! "Chorsu" bozoridayam shunday holat bo'lgan. Bu rol Mirza Azizovga juda katta "obro" olib keldi.

— Shamolning shamoliman, Yaxshining yomoniman, Ko'nglini menga bergen, Mirzo yigit yoriman...

- deya baxtga to'lib kuylagan qo'shig'ingiz qanchalik xit darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, undan keyingi ijodingiz mahsuli bo'lgan "Men ketarman" ashulasi ham muxlislarning sevimli durdonasiga yalandi. Ammo:

Men ketarman, ketganimni bilmay qoling, Bilganda ham sira parvo qilmay qoling. Sizni suyub, parvonadek ado bo'ldim, Bir adodek joyingizdan jilmay qoling

kabi satrlar aktyorning nomidan bugun, ya'ni vafotidan keyin aytılıshi kerakday go'yo... Ushbu qo'shiqni aytishingizga nima sabab bo'lgan? Unga aktyorning munosabati qanday bo'lgan edi?

— O'g'limning juda chirolyi ovozi bor. Ammo Mirza aka "san'atning noni qattiq, toshi og'ir, mana, 40-45 yoshlarga kirganimda odamlar meni Mirza Azizov sifatida tanishdi", dedi. Ota rizoligi uchun o'g'lim boshqa sohanai tanlagan bo'lsa ham qo'shiq yozishini kanda qilmadi. "Onajon, shu qo'shiqni aytasizmi", dedi bir kuni. Mayli, dedim va uni tayyorladik. Ammo olti oygacha bu qo'shiq haqida turmush o'rtog'imga aytolmay yurdim. Hamma do'stlarimiz eshitil. Nihoyat bir kuni kursdoshlarimiz davrasida o'tirganimdan foydalabinib, "bir yangi qo'shig'im bor, eshitib ko'rasizmi?", — dedim. "Mayli, qo'y-chi", dedi. Lekin birinchi to'rtlikni eshitishlari bilan "o'chir", dedi va ko'zlar yoshga to'lib: "Qo'y, Tojibar, sen ketaman, deb meni kuydirmagin, mening ortimda qolgin, bolalarga bosh bo'lib", — deb yig'lab yubordi... Anchagacha "bekor shu qo'shiqni aytibsan", deb yurdi. Kliplarini suratga olib, efirga uzatilgach, ularga ma'qul bo'ldi, ammo keyinchalik bu qo'shining bastakori o'g'lim ekanligini bilib, yana xafa bo'ldi.

— Aktyor haqida gap ketganda, kasbdoshlari uning mahoratlari aktyor bo'lishi bilan birga, ilmi, katta ichki madaniyatga ega, g'amxo'r, do'st uchun fidoiy, barchaga birdekkay xayshilik soq'inadigan inson, mehribon rahbar bo'lganini aytishadi...

— Yaxshilik... Insondon qoladigan buyuk e'tirof va yaqinlari rizoligi. Endi o'ylasam, aktyorning har bir qadami nazarimda ana shu rizolikka erishish uchun tashlanardi.

Mirza aka haqiqiy do'st, yaxshi inson edi. Birovdan yaxshiligidagi ayamas edi. Olamdan o'tganlaridan keyin ham qancha nochor, begona odamlar kelib, menga va o'g'limga uning qilgan yaxshiliklarni aytishdi, qaytarolmadik, qaytarolmaymiz ham, faqat duoda bo'lamiciz, siz ham rozi bo'ling, deyishdi.

Ota sifatida ham farzandlariga juda mehribon va kerak joyida qattiqqo'l bo'lgan. "Sen ortiqcha g'amxo'rlik qilasani bolalarga", deridilar-u ammo o'zlarini ham juda ko'p mehr ko'satar edi. O'g'lim ham, qizim ham sodda va samimi, odamlarga yaxshilik ulashgilari keladi, mehri daryo bularning, deyman. Ularga shumlik yoki mug'ombirlik begona. Bu xislatlardan otasidan meros bo'lib qoldi...

— O'tgan yili Prezidentimiz yurtimizning bir guruhi fidoiy farzandlarini vafotlaridan keyin "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi. Ular orasida birinchilardan bo'lib Mirza Azizov nomi e'tirof etildi. Yurtboshimiz qo'llaridan aktyorga atalgan ordenni olayotib, ko'nglingizdan nimalar kechdi?

— Mirza aka haqiqatdan omadli inson edi. Hayotligidayog mehnatlari qadr topdi, bir necha bor taqdirlandilar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston xalq artisti, "E'tirof", Bishkekda Chingiz Aymatov nomidagi Xalqaro mukofotni oldi. O'zi o'qigan maktabiga "Mirza Azizov" nomi berildi. Mana, vafotlaridan keyin ham Yurtboshimiz "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi. Orden qolimda turibdi, ko'z yoshlarim orden qutisiga tomayapti. Bu quvonch yoshi, inson qadri ulug'langan yurt ayolining iftixor ko'z yoshlarini edi. Shunday yurtda yashayotganimdan, shunday Yurtboshimiz borligidan shukronadaman. O'ganlarni tiriklar qatorida e'tirof etgan Yurtboshimizga ming rahmat!

Saadat RAHIMOVA suhbatlashdi



Dildora IRGASHEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Nuqtai nazar

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA



zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini oshirishda, kitob eng katta vositachi, - deb ko'p takidlaymiz. Ammo bugungi kun yoshlari kitob o'qishyaptimi? Ular o'zlariga qulay bo'lgan usuldan, ya'ni elektron manbalardan ko'proq foydalanadilar.

Misol uchun, biron-bir so'zning ma'nosini qidirayotganda, albatta uni lug'at kitobdan qaramaydilar. Telefon orqali elektron lug'atdan tez va oson ko'radilar. Shunday ekan, axborot-kutubxona markazlarida elektron bazani shakllantirish va ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Kutubxonaga borgan kitobxonning o'zi qidirayotgan kitobini tez va oson topishi uchun elektron katalog tizimini ham rivojlantirish lozim. Fonddagi

barcha kitoblarni elektron katalogga kiritish va ularning to'liq elektron variantini yaratish, bibliografik faoliyatni takomillshitrib borish lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi". Kutubxonashunoslik sohasini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda katta

imkoniyatlar yaratilmoqda. Sohamiz bo'yicha "Kutubxona-axborot faoliyati" nomli, 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonuni kutubxonachilik ishida ko'plab ishlarni tartibga soldi. Bejizga ushbu qonunning 1-moddasiga, qonunning maqsadi "Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish", - deya kiritilmagan. Hozirgi kunda respublikamiz bo'yicha ko'plab yirik kutubxonalar zamonaviy texnolik jihozlar bilan ta'minlanmoqda.

Kompyuter, internet, modem tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lib, kutubxonalararo

ma'lumot almashishlar yo'lda qo'yilgan. Bir kutubxonada yo'q bo'lgan kitobning elektron shakli, boshqa bir kutubxonaning elektron fondida mavjud bo'lishi mumkin.

O'zaro ichki elektron almashishning yo'lda qo'yilganligi, bu kitobxonning tez va oson, eng muhimi qidirgan ma'lumot, adabiyotni topishiga yordam beradi.

Xorijiy davlatlarning yirik kutubxonalarida barcha xizmatlar avtomatlashtirilgan bo'lib, ularda zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanadi. Kitoblarni elektron bazaga kiritish uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturlarni bizning kutubxonalar ham o'zlashtirishmoqda va eng qulay tanlab olinib kutubxonalarimizda tadbiq qilinmoqda. Ba'zi kutubxonalarda, kitobxonlar kutubxonaga borishlaridan avval kutubxonachiga qo'ng'iroq qilib, o'z o'rnni band qilib qo'yadi. Bu esa, kutubxonada tartibni saqlash, kitobxonning kutib qolishi oldini olishi natijasida qulaylik paydo bo'ladi.

Yildan-yilga har bir sohada yangiliklar yaratilayotganligini hisobga olgan holda, biz ham o'z sohamizni yanada takomillashtirishimiz uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz kerak. Zero, barcha ilm va bilimlarning boshi kitobdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kutubxona qadim zamonlardan beri insonlarning ma'naviyatini oshiruvchi ziyo maskani bo'lib kelmoqda. Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda, kutubxonachilik ishini ham yangi bosqichga olib chiqish har bir soha fidoyisining burchi, - deya bemalol ayta olamiz.

USTOZ – OTANGDEK ULUG'



Ustoz, murabbiy, o'qituvchi – bu so'zlarni eshitganimiz sari ko'z oldimizda ma'suliyatli kasb egalari, yillar davomida o'quvchilarga bilim berib ko'zidan nuri ketgan, sochlariqa oq oralagan insonlar gavdalananadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu kasb egalarini boshqacha hurmat qilishadi, e'zozlashadi.

Baxtiyor SAMIYEV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqrurhurmat, ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'chab va ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. Inson, avvalo, unga bilim va ma'rifat dunyosi sari yo'l ochib bergen, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi.

Ana shu aytib o'tilgan fikrlarni amaliyotga tadbiq etib kelayotgan bir jonkuyar insonni bilaman. U mening ustozim, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasiga v.b. dotsenti Mo'minmirzo Xolmo'minov 1993-yil Surxondaryoning Boysun tumanida tug'ilgan. U O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining (2014-yil) "Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishining bakalavr, "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligining magistratura bo'limida tahlil olgan.

Pedagogik faoliyatini 2021-yil 6-sentabrdan

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida boshlaydi. Mo'minmirzo Xolmo'minov mehnatkashligi, izlanuvchanligi bilan jamoada hurmat qozondi. Kamtarligi, bilimdonligi bilan biz talabalarning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi. Xalqda: "Ustoz ko'rмаган shogird har maqomga yo'rg'alar", degan hikmatli naql bor. Ustozimning ustozlari, dotsent Vahobjon Rustamov hamda siyosiy fanlar nomzodi, marhum Azamat Haydarovning o'git, pandu nasihat va maslahatlari bilan hayot va ilm o'chog'ida anchayin toblandi. O'qituvchining yuragi bir tarang tortilgan torga o'xshaydi. Bir shogirdining muvaffaqiyatidan chertilib, nafis bir kuyga aylanadi.

Ustozim Mo'minmirzo Xolmo'minov: "Insandan qoladigani faqat yaxshilik. Yaxshilik qilishga ulgurib qolish kerak. Bu dunyo yaxshilik uchun yaralgan. Biz qilgan yaxshiliklarning mevasidan surriyotlarimiz bahramand bo'ladi", - deydi suhbatimizning birida. U samimiy inson, mehribon farzand, g'amxo'r ota, vafodor yor, bag'rikeng ustoz, dilkash do'st. Havas qilgudek oilaning ustuni. Ustozning pedagogik faoliyatida, ilmiy-ijodiy ishlariada ulkan zafarlar tilaymiz.

Ma'lumki qay sohada bo'lmisin o'z mehnatlarini singdirgan shaxs hamisha ulug'lanadi, chunki u bor mehrini ana shu kasbiga bag'ishlaydi va ana shu mehrning mevasini totadi.

Shogirdlarining sevimli ustozи



G'olib MELIBOYEV,
"Madaniyat va sanat sohasi menejmenti"
talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining, madaniyat va san'at menejmenti kafedrasiga o'qituvchisi dotsent Vohobjon Rustamov ham o'z faoliyati natijasida ko'plap iqtidorli yoshlarni yetuk kadr qilib yetishtirdi. O'zining dars mashg'ulotlari metodi bilan yoshlarni ma'naviyatini san'at darajasini yoritishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ustoz tomonidan amalga oshirilayotgan xar bir amaliy mashg'ulotlar qolaversa nazariy dars mashg'ulotlari ham talabalarga o'z kasbiga sevinish muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Vohobjon Rustamov Qiyomovich ushbu institutda ancha yillardan beri faoliyat olib bormoqda.

Ustoz tomonidan madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati kabi kitob qo'llanmasi hamda ko'plab ilmiy maqolalar, chop etilgan. Uning faoliyati natijasida yilning eng yaxshi o'qituvchisi yuqulariga erishgan ustozni, "1-oktyabr o'qituvchi va murabbiylar kuni" bilan tabriklaymiz. Faoliyat davrida bundanda ko'plab yuqular tilaymiz. Ustoz el ardog'iga yaraydigan shogirdlaringiz poyoni tugamasin, yana bir bor bayramingiz muborak bo'lsin!



SO'Z ZARGARI

70 YOSHIDA

Dunyoga mashhur bo'lgan ko'plab san'atkorlarga, sizningcha sahnadagi faoliyatizingizda eng muhimmi nima? – deb savol berishganda: so'z va yana so'z, – deb javob berishganligini ko'p o'qiganmiz yo eshitganmiz. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti sahna nutqi kafedrasida ko'p yillardan buyon ravon nutq, sof adabiy til meyorlari, tovushning jarangdorligi-yu, rang-barangligi borasida bo'lajak san'atkorlarga dars berib kelayotgan ustoz Juldiqorayeva Xatira Toshtemirovna kuni kecha muborak yetmish yoshni qarshiladi.

Bahodir MAG'DIYEV,
O'zDSMI dotsenti

Ustoz qirq besh yilga yaqin sahna nutqi kafedrasida, tomosha bolalar teatri studiyasida, Karim Zaripov nomidagi estrada sirk kollejida, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrinda ham faoliyat yuritgan serqirra ijodkordin. Ularning ijod yo'liga nazar tashlasak. Bo'lajak aktyor va rejissyorlarning nutqini oshirishda muhim sanalgan

"Sahna nutqi", "Nutq texnikasi", "Sahna nutqi bilimdoni" o'quv darsliklari hamda sahna nutqi fani asoschilaridan biri professor Lola Agzamovna Xo'jayeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan monografiya muallifidir. Bundan tashqari ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida O'zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqova, O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Abdurasul Abdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Muslimbek Yo'ldoshev, usto san'atkor Hamid Toshpo'latov, xizmat ko'rsatgan artistlar Lola Eltoyeva, Mehriddin Rahmatov, Muhabbat Qurbanova kabi ko'plab shogirdlar yetishtirishda salmoqli xizmat qilib, ko'p yillar institut xotin-qizlar kengashini ham boshqarib keldilar.

Kuni kecha institut o'quv teatrda katta yubiley kechasi o'tkazilib, madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tomonidan yubilyarga madaniyat va san'at fidokori ko'krak nishoni topshirildi. Institut rahbariyati ham esdalik sovg'alar va pul mukofoti bilan o'z hissasini qo'shdi. Fursatdan foydalanih, fidoyi kasb egasi Xatira Toshtemirovaga uzoq umr, ijodiy barkamollik tilab qolamiz.



Ustoz murabbiylar kuni arafasida O'zDSMIning bir guruh professor-o'qituvchilari hamkasclarini kasb bayramlari bilan tabriklagani Toshkent arhitektura qurilish universitetida konsert dasturi bilan ishtirok etishdi. Institut rektori Erjan Kahya janoblari ustozlarga tabrik so'z aytib, 3 nafar o'qituvchini oliy ta'lim a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirladi. Kasaba

uyushmasi tomonidan esdalik sovg'alar ulashildi. Ustoz san'atkorlar Xayrulla Lutfullayev, Munojot Yo'ichiyeva, Azamat Sharipov, nihol davlat mukofoti sovrindorlari Gulzoda Xudoynazarova, Isroil Saidumarov ijrosidagi kuy-qo'shiqlar, boshlovchi Bahodir Mag'diyevning Ustozlar haqidagi she'riy baytalarini mezbonlar hali ko'p eslab yurishadi...

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSOSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdan ISMOILOV

Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV
www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Ko'rgazma

BUXORONING ZARRIN JILVASI

Hasan ABDUNAZAROV

Kamoliddin Bexzod nomidagi Sharq minnatyura san'ati muzevida IV xalqaro amaliy san'at biyennalesi doirasida zardo'z usta Nodir Rasulovning "Buxoroning zarrin jilvasi" nomli zardo'zlik asarlaridan iborat shaxsiy ko'rgazmasi tashkil etildi.



Milliy madaniyatimiz va san'atimizning ajralmas qismi bo'lgan ko'rgazmada, o'ttizdan ortiq zardo'zlik namunalari namoyish qilinmoqda.

O'zbek zardo'zlik san'ati asrlar davomida rivojlanib, shakllanib hozirda ham xalq amaliy bezak san'ati turlari orasida o'z o'rniiga ega. Nodir Rasulov Buxorolik zardo'zlik san'ati ustasi hunarmand oilasida tavallud topgan. Uning otasi yog'och o'ymakorligi bo'yicha o'z kasbining mohir ustasi. Onasi va opa-singillari esa, gilam kashtado'zi bo'lganlar.

Nodir usta bugungi kunda ayollar va erkaklar liboslardan tortib, yostiq jiddlari, parda va boshqa turli-tuman betakror buyumlar namunalarini yaratmoqda. Usta doimiy ijodiy izlanishda. Yurtimiz bo'ylab sayohat qilib, zardo'zlikning xududlarga xos xususiyatlarini tadqiq etadi. Bugungi ajodolar boy tajribasini zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtiradi. Uning asarlarini qator xorijiy mamlakatlar muzeylearda uchratish mumkin. Ko'rgazma namoyishi davom etmoqda.

OLIM, SHOIR VA YOZUVCHINING 95 YILLIGI



Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
yozuvchi va shoir
Abdumannop Egamberdiyev
tavalludining 95 yilligiga
bag'ishlangan tantanali
adabiy-ma'rifiy anjumanga

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida iqtisod fanlari doktori, professor, yozuvchi va shoir Abdumannop Egamberdiyev tavalludining 95 yilligi munosabati bilan adabiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda adabiyotshunoslar, shoirlar, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa turli kasb egalari, yoshlar qatnashdilar.

Tadborda Respublika Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinosari G'ayrat Majidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari: Shuxrat Rizayev, Zuxriddin Isomiddinov, taniqli davlat arbobi Isroil Jo'rabelev, tarix fanlari doktori, professor Temur Shirinov, filologiya fanlari doktorlari Robiya Rajabova, Ergash Ochilov, yubilyar yozuvchining o'g'li akademik Shuxrat Egamberdiyev va boshqalar so'zga chiqdilar.

Ular adibning insoniy fazilatlari, ilmiy-adabiy merosi haqida nashr etilgan kitoblari to'g'risida fikrlar aytildi. Yosh ijodkorlar adib ijodidan namunalari o'qidi.

Kitobxonlar adibning "G'azal sehti", "Aruz jilolari", "O'zbek bo'lib tug'ildi" kabi she'riy to'plamlari, "Тен желтого дракона" (rus tilida), (o'zbek tilida) "Sariq ajdar hamlasi" (ushbu asar 2013 va 2016-yillarda qayta nashr etilgan) asari kitobxonlarga tanish. Uning g'azallari, she'rlari jamlanib, 2590-yilda "Bul yurak dog'indadir" to'plami chop etildi.

Kechada uning hayotdagi lavhalar ekranada namoyish qilindi.

O'Ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kелишilgan holda.
Chop etishga 30.10.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.